

YOSH AVLODNI KOMIL INSON QILIB TARBİYALASHDA FOLKLOR SAN'ATINING O'RNI

Soatova Rayxona Sadridin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika va san'at fakulteti

Pedagogika yo'nalishi talabasi

rayhonasatova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11034057>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kun yoshlarini komil inson qilib tarbiyalashda, ularning ma'naviyatini yuksaltirishda folklor san'atining o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Folklor, xalq, milliylik, xalq og'zaki ijodi, adabiyot, dostonlar.

THE ROLE OF FOLKLORE ART IN EDUCATING THE YOUNG GENERATION AS A PERFECT PERSON

Abstract. This article talks about the role and importance of folklore art in educating today's youth to be perfect people, raising their spirituality.

Key words: Folklore, people, nationality, folklore, literature, epics.

РОЛЬ ФОЛЬКЛОРНОГО ИСКУССТВА В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ КАК СОВЕРШЕННОЙ ЛИЧНОСТИ.

Аннотация. В данной статье говорится о роли и значении фольклорного искусства в воспитании современной молодежи совершенными людьми, повышении ее духовности.

Ключевые слова: Фольклор, народ, народность, литература, былины.


Biror xalqning jahon xalqlari orasida tutgan o'rni, insoniyat tamadduniga qo'shgan hissasi, eng avvalo, xalq og'zaki ijodi namunalarida ko'rinadi. Xalq og'zaki ijodi har bir millat, xalqning eng tub o'zagini tashkil etadi va uning tarkibida shakllangan turli janrlar, obrazlar yozma va og'zaki adabiyot rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy aloqalarning mavjudligi ham ana shu folklor san'atini o'rganish natijasida paydo bo'lgan desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek folklorini yozib olish, nashr qilish, tadqiq etish ishlari o'tgan asr avvallaridan boshlangan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodini chinakam, har tomonlama o'rganish, mukammal nashrlarini amalga oshirish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini ko'rsatish, anglab yetish bevosita mustaqillik sharofati bilan ro'y berdi. Ushbu xayrli ishlarning bosh sababchisi mustaqilligimiz bo'ldi. 1990-yilda Navro'z bayramining umumxalq tantanasi darajasida nishonlash an'anasining boshlanishi, «Alpomish» dostonining 1000 yillik to'yi va eng ulkan tarixiy voqea O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi farmonining e'lon qilinishi va bu ishning amalga oshishi til, adabiyot qatorida o'zbek folklorining ham har tomonlama o'rganish ishlariga keng imkoniyatlar yaratdi. «Folklorshunoslik va dialektologiya» kafedrasining ushbu universitet tarkibida tashkil topishi fikrimizni dalillaydi.

«O'zbek folklori» fanining yangi talablar asosida o'qitilishi ushbu kafedra faoliyatining muhim bir qismi hisoblanadi. I.Karimovning 2008-yil e'lon qilingan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida: «Ajodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi

toshyo'zuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, falsafa, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir»¹.

Folklor atamasi turli davrlarda turlicha o'rganilgan, unga nisbatan turlicha yondashuvlar bo'lgan. Folklor (inglizchadan *folk* - „xalq“, *lore* - „bilim“, „donolik“) - xalq ijodini ifodalovchi termin. Fanga 1846-yilda ingliz arxeologi Uilyam Toms olib kirgan. 1880—1990-yillarda „folklor“ termini ko'plab mamlakatlarda, jumladan, Rossiyada ham qo'llana boshlagan. O'zbekistonda dastlab, „og'zaki adabiyot“, „og'iz adabiyoti“ atamaları qo'llangan. „Folklor“



termini 30-yillarning o'rtalaridan ishlatila boshlagan. 1939-yilda Hodi Zarifning „O'zbek folklori“ xrestomatiyasi nashr etilgach, bu termin o'zbek folklorshunosligida mustahkam o'rin oldi². Folklor san'atida xalqning uzoq tarixi, maishiy hayoti, turmush tarzi, qadriyatları, udumlari aks etgan bo'ladi. Bundan tashqari shu kasbi asarlarda xalqning dunyoqarashi, ibtidoiy mifologik tushunchalari, diniy e'tiqodlari bayon etilgan bo'ladi. Folklor san'ati boshqa adabiyot namunalarida bir nechta o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning ahamiyati haqida so'z ketar ekan, aslida bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Buvilarimiz, onalarimiz tomonidan aytilgan allalar, ertaklar, qo'shiqlar, maqollar, laparlar bolaning dunyoqarashi, tilini shakllanishiga, rivojlanishiga

¹ T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov O'zbek folklori. – T., 2020.

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Folklor>

xizmat qiladi. Xalq o'yinlari esa bolalarning jismonan chiniqishi, sog'lom bo'lishi uchun xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, folklor faqat so'z boyligini ko'rsatib beruvchi majmua emas, balki, xalqning tafakkur va tushunchasini bor bo'yicha ko'rsatuvchi, uzoq o'tmishdan to bugungi kunga qadar jonli holatda xalq bilan birgalikda yashab kelayotgan doimiy harakatdagi tarixi va madaniyatidir.

Alloma Hodi Zarifov «Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qiymati ularning lug'at boyligi bilan belgilanadi» degan edi. Xalq dostonlari o'zbek tili tarixining serqatlamliligini va bo'yoqdorligini o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun xalq dostonlarning tilini tadqiq etish bir tomondan til tarixining qadimiy ildizlari haqida kengroq ma'lumot bersa, ikkinchi tomondan hozirgi zamon o'zbek adabiy tilini to'laqonli o'rganishda, uni boyitishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi³.

Folklor faqatgina yozma adabiyotga emas, balki ko'plab san'atlarning han ibtidosidir. U badiiy ijod, raqs, musiqa, tasviriy san'at kabi san'at turlari bilan chambarchas bog'liqdir. Agar qaysiki ijodkor xalq folklorini o'zida mukammal singdirgan bo'lsa, o'sha ijodkorning asarlari, ijod namunalari ham badiiylik nuqtayi nazaridan ancha mukammal ekanligi kuzatiladi. Chunki milliy ong va tafakkurnining shakllanishida badiiy asarlarning, xalq og'zaki ijodlarining o'rni beqiyosdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kun yoshlarini komil inson qilib tarbiyalashda, ma'naviyatini yuksaltirishda ko'plab vositalar, metodlar, usullar, tadqiqotlar mavjud. Ammo bu vositalarning barchasi, eng avvalo, so'z san'atining ibtidosi bo'lgan folklor namunalari suyanilgan holda amalga oshirilsa, fikrimizcha, anchayin samarali va ta'sirchan bo'ladi.

Xalqimizning, millatimizning taraqqiyotida, uni har tomonlama rivojlanishida badiiy adabiyot, xususan, folklor san'ati hamisha tayanch vazifani bajarib kelgan. Zero, shuni unutmaslik lozimki, folklor millatning tirikligi, quvvati va buyukligidir. Bugungi globallashuv asrida davlat chegaralari qanchalar mustahkam qo'riqlangan bo'lsa, uning tili, madaniyati, tafakkuri, estetik didi ham shunday asrab-avaylanishi va qattiq himoya qilinishi lozim.

REFERENCES

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov O'zbek folklori. – T., 2020.
3. Sh.Atboyeva. (2022). YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA FOLKLOR SAN'ATINING O'RNI. "SCIENCE AND INNOVATION" INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. Vol.1, Issue 7, 10-13-betlar.
4. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12865_1_35B6D2E9A7ED4554794AFEBF8BD2A90CD0E79387.pdf
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Folklor>

³ T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov O'zbek folklori. – T., 2020.